

**Azimova Nodira Xikmatovna**

*Buxoro davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi,*

*Zarmad universiteti o'qituvchisi*

*Nodira Khikmatovna Azimova*

*Independent student of Bukhara State University,*

*Zarmad University teacher*

*Азимова Нодира Хикматовна*

*Независимый исследователь Бухарского государственного*

*университета, Преподаватель Университета Зармед*

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada ertaklar bolalarning so‘z boyligini oshirishi, fikrlash qobiliyatini rivojlantirishi va ijodiy salohiyatini yuksaltirishda muhim rol o‘ynashi ohib berilgan. Ertak tanlashda bolaning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish va ertakni nutqni rivojlantirish maqsadlariga moslashtirish muhim ekanligi tavsiflab berilgan. Ertakni qiziqarli va interaktiv tarzda yetkazish esa bolalarning nutqiy faolligini oshirishga xizmat qilishi izohlangan.

**Kalit so’zlar:** ertak, ifodalilik, mutolaa, ohang, faoliyat, ma’naviy yuk, mulohaza, ijod, fikrlash doirasi, badiiy adabiyot.

### **Abstract**

This article reveals that fairy tales play an important role in increasing children's vocabulary, developing thinking skills, and enhancing their creative potential. It is described that when choosing a fairy tale, it is important to take into account the child's personal characteristics and adapt the fairy tale to the goals of speech development. It is explained that presenting a fairy tale in an interesting and interactive way serves to increase children's speech activity.

**Keywords:** fairy tale, expressiveness, reading, tone, activity, spiritual load, reflection, creativity, frame of mind, fiction.

### **Аннотация**

В статье показано, что сказки играют важную роль в увеличении словарного запаса детей, развитии мыслительных навыков и повышении их творческого потенциала. Описано, что при выборе сказки важно учитывать личностные особенности ребенка и адаптировать сказку к целям развития речи. Объяснено, что представление сказки в интересной и интерактивной форме способствует повышению речевой активности детей.

**Ключевые слова:** сказка, выразительность, чтение, тон, активность, духовная нагрузка, рефлексия, творчество, настрой, художественная литература.

Ertaklarning o‘z o‘qilish ohangi bor. Har bir pedagog – tarbiyachi mashg’ulotga tayyorlanish jarayonida shu ohangni topib olishi lozim. Uning qaysi qismi yo‘g‘on ovozda, qaysi bo‘lagi siniq ohangda, qay o‘rnlari mayinlik va qay biri qat`iyat bilan o‘qilishi kerakligini oldindan belgilab qo‘ygan ma`qul. Asarning o‘qilish ohangi va ifodaliligi faoliyatning yarim muvaffaqiyati sanaladi. Tarbiyachi mutolaasi bilan bolalar ko‘nglini bezovta qila olishi, ularning inon-ixtiyorini to‘laligicha o‘ziga qaratib olishi mumkin. Butun diqqat-e`tibori matnga qaratilgan bola boshqa narsalarga chalg‘imaydi. Bunga ehtiyoj ham qolmaydi. U bor vujudi bilan yoqimli ohangda o‘qilayotgan ertakni tinglaydi.

Ertak matni mazmuni yuzasidan tuzilgan savol-topshiriqlarning har birida bolalar diqqatini qaratishi, uning shuuridan o‘tishi, ko‘ngliga o‘rnashib qolishi kerak bo‘lgan lavhalar, fikrlar bo‘lishi zarur. Asarning badiiy jihatidan go‘zal chiqqan o‘rnlari savol-topshiriqlarda o‘z aksini topishi, ularning har biriga badiiy, axloqiy, ijtimoiy, ma`naviy yuk qo‘yilishi, ularning har biri bolalarni asar matnini shunchaki takrorlashga emas, u haqda o‘ylashga, mulohaza yuritishga, tasavvur qilishga yo‘naltiradigan tarzda bo‘lishi zarur.

Yana shuni alohida ta`kidlash joizki, tarbiyachining savol-topshiriqlariga guruhdagi hamma bolalar javob berishlari shart emas. Ma`lumki, Xudo har kimga har xil qobiliyat va imkoniyat ato qilgan. Bilimlarni har bir bola o‘z imkoniyati doirasida o‘zlashtiradi. Boladan imkoniyatidan ortiqcha bilimni talab qilish uni ta‘lim olishdan bezdirib qo‘yishi mumkin. Shuning uchun tarbiyachi savollariga javob berolgan bolalarni rag‘batlantirishi, buning uddasidan chiqolmaganlarni esa zo‘rlamagani ma`qul. Ular boshqa – o‘z imkoniyatlari doirasidagi topshiriqlarni bajarishlari va shu asosda rag‘batlantirib borishlari maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Tayyorlov guruh yoshidagi bolalar ijodiy ishlarni jon-dili bilan bajaradilar va bundan olam-olam zavq oladilar. Shu zavq, shu yoqimli tuyg‘ular uni muhim taraqqiyot sari tortadi. Shu zavqni qayta tuyish ehtiyoji uni rivojlanish sari yetaklaydi. Tarbiyaning mana shu xili bola tabiiy taraqqiyoti bilan hamohang kechadi. Bu jarayonda bolalar tasavvurini, xayolparastligini rag‘batlantirish va ularning ijodiga imkoniyat yaratib berish kerak. Bola uchun qiziqarli bo‘lgan har qanday faoliyat – foydali. Bola nimani xohlasa, nimaga qiziqsa, shuni qilib ko‘rishi kerak. Odatda, yosh bolalar o‘z imkoniyatlari doirasidan tashqaridagi ishlar bilan shug‘ullanishni xush ko‘radilar. Bu ular uchun o‘sish, rivojlanishning yagona yo‘lidir. Bolalar shuning uchun ham kattalarning ishlariga ko‘p aralashadilar, qo‘llaridan kelmaydigan narsalarni qilishga chiranadilar. Bu ularning tabiatidagi rivojlanish, o‘sish sari tabiiy intilishidir.

Bolalarni ijodga undashning yo‘llari juda ko‘p. Masalan, Tayyorlov guruh rejasida berilgan ”Tulki va turna” ertagini nomini aytmasdan undagi beshta tanish

so‘zni aytish: «tulki», «turna», «likopcha», «ko’za», “mehmondo’st” hamda begona oltinchi so‘z «g’or» ko‘magida yangi ertak tuzish vazifasini topshirish mumkin. Yoki «A.Navoiy», «H.Boyqaro», «Non», «Vazir», «Donishmand» va begona so‘z «uchar gilam» ko‘magida yangi ertak to‘qishga undash mumkin. Yoxud tugagan ertakni davom ettirish, qahramonlarning keyingi hayotini tasavvur qilishni talab etish ham o‘ta foydali ijod turi hisoblanadi. Tarbiyachi yoki ota-onal shunday o‘yin-topshiriqlar yordamida shakllanayotgan shaxsning yangi narsaga munosabatini o‘rganadilar, uning yangi, begona so‘zdan foydalana bilish qobiliyatini shakllantiradilar.

Bolalar kichik yoshdan anglashlari kerakki, insonning ichki dunyosi, ma’naviy qiyofasi, xulq-atvori, muomalasi, odob-axloqi, madaniyati uning tili orqali namoyon bo’ladi. Chunki har qanday kishining madaniyatligi, odobi, bilim darajasi, fahm-farosati, fikrlash doirasining kengligi yoki torligi, katta hayotga tayyor yoki tayyor emasligi uning nutqida o’z aksini topadi. Kimning tili boy bo’lsa, kim so’zlarni adabiy til asosida to’g’ri, aniq, ravon, ifodali va tushunarli talaffuz qilsa, o’z ona tiliga chuqur hurmat va ehtirom bilan qarasa, u bilimli sanalib, kishilar orasida obro’-e’tibor qozonadi. Hayotni kuzatar ekanmiz, so’z boyligi kam, tili qashshoq, so’zlari qovishmagan, o’z fikrini aniq ifoda eta olmaydigan yoshlar ham uchrab turishiga guvoh bo’lamiz. Ba’zi yoshlar orasidagi ruscha, ayrimlari esa ko’pchilik tushunmaydigan so’zlarni qo’shib odamlar orasida gapiradilar. Yoshlikdan badiiy adabiyotga mehr qo'yish, uni o'qishga ko'nikma hosil qilish va ko'p o'qish va o'z fikrlarini kerakli joyda to'g'ri ayta bilishi yuksak ma'naviyatlilikni, boy, go'zal, ta'sirchan tilga ega bo'lishni ta'minlaydi.

### **Foydalilanigan adabiyotlar:**

- 1.F.Qodirova, Sh.Tashpulatova. Bolalar bog‘chasida metodik ishlar (darslik). -T.: «Voris nashriyot», 2012.
2. Madayev O. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. –T.: Mumtoz so‘z, 2010.
3. Bahodirova N. Eshitib anglash boshqacha. — “Yoshlar ovozi” gazetasi. 15-son.
4. To’rabekova A.M., Nasriddinova N.A. Xalq og‘zaki ijodi namunalarini o’qitish metodikasi (Monografiya) – “Guliston”, 2021
5. Azimova N. X., Gulyamova S. U. B. MTTlarda nutq o’stirish mashg’ulotlarida maqollardan foydalanish texnologiyasi //Scientific progress. – 2023. – T. 4. – №. 2. – C. 49-51.